

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA PSIFIZIOLOGIK RIVOHLANISH VA FAOLIYAT

ADPI MT yo’nalishi 104-guruh talabasi
Xasanova Nargiza.

Annotatsiya Ushbu maqolada bolalik davri psixologiyasi , go’daklik davridan boshlab rivojlanish bosqichlari va inqirozi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar- ilk bolalik davri , go’daklik davri, inqiroz, faoliyat, o'z - o'zini anglash, kattalik, maktabgacha yosh davri.

Go’daklik davridan so’ng rivojlanishning yangi davri ilk bolalik (1- 3 yosh) davri boshlanadi .Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatli , uning kelgusi psixologik rivojini belgilab beruvchi davr hisoblanadi. Bu rivojlanish asosini bolaning to'g'ri yurishini , muloqotga kirishishini va predmetli faoliyatni egallashi tashkil etadi .Tikka va to'g'ri yura olish imkoni bolani doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga olib keladi. Bu yoshdagi bola o'z xatti - harakatlari jihatdan juda faol kattalar bilan muloqotga kirishishda intiluvchan bo'ladi. Bir - uch yosh bola shakllanishida psixik rivojlanishning nihoyatda ahamiyati kattaligini inobatga olgan holda ayrim psixologlar(m-n R .Zazzo) inson tug'ilgandan to yetuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojning taxminan o'rtalari uch yoshga to'g'ri keladi degan mulohazani beradilar .

O'z - o'zini anglash bolaning ilk davridan boshlanadi. O'z - o'zini anglash degani - yaxlit holda o'z ustida ishlash mazmunini , o'z - o'zini tarbiyalash dasturini belgilaydi. Bola o'z yaqinlaridan maqto'v olishga harakat qiladi . Ota - onalar tomonidan bolaning hatti - harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholar ularda o'zlarining layoqat va imkonoyatlariga nisbatan ishonchni shakllantiradi. U o'z ota - onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib , intizomli va itoatkor bo'ladi.

Anashu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, havotirligi kamayadi . Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qiladilar va atrof muhitni o'rganishga intiladilar. Kattalarning bola bilan qanday muomila qilishlariga qarab o'z "men" ini ang'lay boshlashi bir muncha avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin uch yoshli bola masalan o'z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan manba deb biladi va uning menga bering, ko'taring, men ham boraman kabi talablarida ko'rinadi . Uch yoshli bolalar o'zlarini o'z'galar bilan taqqoslay boshlaydilar. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo'lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning o'zim qilaman so'zlarida na'moyon bo'ladi.

Uch yoshdagi inqiroz : uch yoshga kirib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (huquqi bo'lgan), ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. " Men katta bo'lsam mashina haydayman" " men sizga katta tort olib kelaman " , " mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi" kabi xohishlarni o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham o'zining barcha xohishlarini shu bugun amalga oshirishga harakat qiladi.

Ko'pincha bunday xislat qat'iylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan bolaning kattalarga bildirgan salbiy xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bola o'zi mustaqil harakat qila olishini ang'lagan vaqtdan boshlab, unda “o'zim qilaman” boshlanadi va bu yana qaysarlik va o'jarlik tarzida ko'rinadi. 3 yoshdagi inqiroz bola shaxsining ma'lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti- harakatlarini qila olmayotganligini ang'lashi natijasi hisoblanadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan iroda, layoqat va boshqa bir qancha hususiyatlar uni shaxs bo'lib shakllanishiga tayyorlaydi.

Mashxur rus pedogogi Lesgaftning firicha insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda harakter xislatlarning namunalari shakllanib, axloqiy

harakterning asoslari yuzaga keladi. Bog’cha yoshdagi bolalarning ko’zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o’yindir. Bog’cha yoshidagi bolalar o’zini o’yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko’p olimlarning diqqatini o’ziga jalb etib kelmoqda. Bog’cha yoshidagi bolalar o’zlarining o’yin faoliyatida ildam qadamlar bilan olg’a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tamonlarini aks ettirishga intiladilar.

3-7yoshli davrda bolalarning asosiy faoliyati quydagi ketma-ketlikda kechadi.

- predmetlarni o’rganish;
- individual predmetli o’yinlar, jamoa sujetli-rolli o’yinlar;
- individual va guruhij ijod;
- musobaqa o’yinlari;
- muloqot o’yinlari;
- uy mehnati;

Bog’cha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatdan o’sishida qiziqishning o’rni kattadir. Bu esa o’z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim hislatlarni o’stirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ilk bolalik davrida bola o’zini boshqalarga taqqoslash orqali o’zini baholaydi va “men” konsepsiyasi shakllana boshlaydi. Bu davrda o’ziga xos psixologik jarayonlardan o’tadi. Psixologlarning fikricha bolalar bu davrda o’zini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishi va qiziqishlarini so’ndirmaslikka harakat qilish kerak. Zero, bolaning kelajakdagi yutuqlari poydavori bugundan boshlanishini unutmaslik darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. N. Ismoilova, D. Abdullayeva " Ijtimoiy psixologiya" Toshkent - 2013.
2. Dustmuhammedova Sh.A. Tillashayxova .X.A. "Yosh davrlari pedagogik psixologiya" darslik Toshkent 2021.
3. Xaydarov .F.I. Xalilova N " Umumiy psixologiya " T fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi 2009.
4. Z.T. Nishonova ,N.G’. Kamilova, D.U. Abdullayeva, M.X. Xolnazarova. “Umumiy rivojlanish”.
5. ВАХАБОВА, Ў. (2023). ТУРЛИ ПСИХОДИАГНОСТИК МЕТОДИКАЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 134-138.